

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV
BOSHQARUVNING O'RNI**

Ahmedova Xusnora Xurmatilla qizi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
Sanoat iqtisodiyoti va menejment kafedrası,
57-20MT guruh talabasi.
Aloqa telefoni: +99897 712 79 08
Elektron pochta: xusnorahmedova000@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyati va korporativ boshqaruv tushunchasi, aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvni tashkil etish, rivojlanish bosqichlari to'g'risida mulohazalar yuritilgan.

Tayanch iboralar: AJ, korporativ boshqaruv, dividend, aksiyadorlik jamiyati turlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия акционерного общества и корпоративного управления, организация корпоративного управления в акционерном обществе, этапы развития.

Ключевые слова: АО, виды корпоративного управления, дивиденды, акционерное общество.

Abstract. This article discusses the concept of a joint-stock company and corporate management, the organization of corporate management in a joint-stock company, and the stages of development.

Keywords: joint stock company, types of corporate management, dividend, joint stock company.

Bugun mamlakatimizdagi deyarli barcha yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. Korporativ boshqaruv usullari joriy etilgan kompaniyalar soni ham ko'payib bormoqda. Xo'sh, aksiyadorlik jamiyati o'zi nima? U qachondan o'z faoliyatini boshlagan?

Aksiyadorlik jamiyati – ustav miqdori (ya'ni kapitali) ma'lum bir miqdordagi aksiyalarga bo'linib ketgan mulkdorchilik turi hisoblanadi. Uning tashkilotchilari *ta'sischilar* deb yuritiladi. Aksiyadorlik jamiyati boshqa mulkdorchilik turlaridan muomalaga aksiyalarni chiqarish va sotish yo'li bilan ajralib turadi. Aksiya egalari aksiya narxi o'sishi hamda dividend ko'rinishida daromad oladilar.

Dividend deb, [aksiyadorlar jamiyati](#) foydasidan [aksiya](#) egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismiga aytiladi.

Dastlabki aksiyadorlik jamiyati XVII asrda paydo bo'lgan. O'zbekistonda esa bozor islohotlari davomida mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida vujudga kelgan.

Aksiyadorlar jamiyatining ochiq va yopiq jamiyat shaklidagi turlari bor:

- *Yopiq aksiyadorlik jamiyati* — aksiya egalari ma'lum guruh, masalan, ta'sischilarning o'zi bilan cheklanadi. Aksiyalar faqat ularning o'rtasida tarqatiladi.

- *Ochiq aksiyadorlik jamiyati* — jamiyat aksiyalari erkin sotiladi va sotib olinadi, aksiyadorlar soni cheklanmagan, xohlagan va aksiya olishga puli bor yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan, ajnabiy shaxslar uning a'zosi bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni

1996-yil 26-aprelda qabul qilingan. 2014-yil 6-mayda esa yangi tahrirda qabul qilindi. Bunga sabab qonunning barcha moddalariga o'zgartirish kerakligida edi. Dastlab 2 turdagi aksiyadorlik jamiyati mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda faqat ochiq aksiyadorlik jamiyati mavjud. Ya'ni aksiyadorlik jamiyati deb yuritiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida mulkchilikning mazkur shakli ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi Germaniyada joylashgan Yevropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta'minlash maqsadida tashkil etilganini ta'kidladi.

Korporativ boshqaruv tizimi – bu aksiyadorlik jamiyati o'z aksiyadorlari manfaatlarini ifodalashi va himoya qilishi uchun kerak bo'lgan tashkiliy modeldir.

"Korporativ boshqaruvning asosiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan turli shaxslar manfaatlarini muvozanatini o'rnatishdan iborat", - deya ta'riflagan A. Xoshimov. Mazkur izohda korporativ boshqaruv faqatgina aksiyadorlik jamiyatlari bilan bog'langan, vaholanki korporativ boshqaruv yirik mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ham joriy etilishi mumkin.

Korporativ boshqaruvning quyidagi elementlari mavjud:

- aksiyadorlar manfaatlariga rioya qilishdan iborat jamiyat faoliyatining axloqiy asoslari;
- o'z egalari uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishishi, masalan, bozor yetakchilariga nisbatan yuqori rentabellik yoki sanoatning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori rentabellik;
- kompaniya uchun barcha qonuniy va me'yoriy talablarga rioya qilish.

Korporativ boshqaruv tarixiga keladigan bo'lsak, XVII asrda Angliyada (Hindiston mustamlaka davlat edi) korporativ boshqaruv tashkil topgan. Ost-Ind (East India Company) kompaniyasi tomonidan 24 a'zodan iborat direktorlar kengashi tashkil etilgan hamda birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo'lib berilgan.

Menejment so'zi ham boshqaruvni anglatadi. Xo'sh korporativ boshqaruvni menejmentdan farqi nimada? Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganishdan, boshqarishdan iborat bo'lsa, korporativ boshqaruv mulkni boshqaradi.

Korporativ boshqaruvning vujudga kelishi mulkka egalik qilish va uni bevosita boshqarish vazifalarining bir-biridan ajralib chiqishiga bog'liqdir. Bunday ajralish natijasida aksiyadorlik jamiyati faoliyatini bevosita boshqaruvchi yollanma rahbar (ya'ni menejer)ning ahamiyati oshadi. Pirovardida o'zaro munosabatlarda ishtirok etuvchi turli guruhlar paydo bo'ladi. Ularning har biri o'z manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi. Shu munosabat bilan aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning bosh vazifasi jamiyatning barcha aktivlaridan samarali foydalanishdan iborat bo'ladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yilda bir marta bo'ladi. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash uchun. Kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- qonunchilikda o'rnatilgan cheklanishlar;
- alohida aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashiga saylanadigan shaxslarga maxsus talablar.

Germaniyaning "Daymler", "Simens", "BMV", "Lyuftganza", "Tissen Krupp", "MAN", "Knauf" singari 25 yetakchi kompaniyasi tashabbusi bilan 2002-yilda asos solingan Yevropa menejment va texnologiyalar maktabida "Biznesni boshqarish", "Rahbar xodimlar uchun biznesni boshqarish" singari xalqaro standartlar asosidagi o'quv dasturlari tashkil qilingan. Ta'lim dargohining bir guruh mutaxassis va professor-o'qituvchilari tomonidan "O'zbekneftgaz", "O'zvinosanoat-xolding" kompaniyalari, "O'zqurilishmateriallari", "O'zeltexsanoat", "O'zdonmahsulot", "Dori-darmon", "Kafolat sug'urta kompaniyasi", "O'zkimyosanoat", "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatlari singari yirik korxonalarining rahbar xodimlari korporativ boshqaruv usullari bo'yicha o'qitildi.

Vena moliyaviy hisobdorlik tizimini isloh qilish markazi rahbari Anri Fortinning fikricha, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rag'batlantirish aksariyat davlatlarda dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekistonda davlat mulkini xususiy lashtirish bo'yicha puxta o'ylangan strategiyaning amalga oshirilayotgani va menejrlarning chuqur bilimga ega ekani ushbu jarayon muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganimizda, korporativ boshqaruv muhim ahamiyatga ega, chunki u kompaniyaning qanday ishlashini va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlariga mos kelishini tartibga soluvchi qoidalar va amaliyotlar tizimini yaratadi. Yaxshi korporativ boshqaruv axloqiy biznes yuritishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, moliyaviy barqarorlikka olib keladi. Investirlarni jalb qilish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalarining faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishiga erishish mumkin. Bu o'z navbatida raqobatbardoshlikni oshiradi. Ichki bozor raqobatida chiniqqan korxonalar, xalqaro bozor ya'ni yanada kuchliroq raqobatbardoshlikka, rivojlanishga intiladi. Bunda ichki bozorda to'plagan tajribasi juda qo'l kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yhati:

- 1) https://enc.for.uz/wiki/Aksiyadorlik_jamiyati
- 2) <https://uza.uz/oz/posts/korporativ-boshqaruv-samaradorlikning-muhim-omili-15-02-2016>
- 3) https://enc.for.uz/wiki/Aksiyadorlik_jamiyati
- 4) "Zamonaviy korporativ boshqaruv" S. Elmirzayev
- 5) "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo'llari"
X.B. Rajabboyev